ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026/ № 1. 1-2

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 12.03.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Yo'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 12.03.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 12.03.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

PARDAYEV AZAMAT BAXRONOVICH
So‘zning lingvistik tabiati xususida 7

HAMIDOVA MUHAYYOXON OBIDOVNA
Shukur Xolmirzayev nasrida milliy mentalitetning badiiy talqini 11

ABDURAXMONOV XUDOYNAZAR ABDIRAYIMOVICH
Mavhum otlarning kognitiv-semantik va diskursiv xususiyatlari:
zamonaviy tilshunoslik yondashuvlari asosida tahlil 16

ASADOV TO‘LQIN HAMROYEVICH
Predmet-belgi ma’noli ayrim morfologik oraliq so‘zlarning qiyosiy-tarixiy tavsifi 22

G‘AYBULLAYEVA DILDORA FAYZULLA QIZI
O‘zbek tilidagi insonning fizik xususiyatlarini
ifodalovchi frazeonimlarning semantik-stilistik tahlili 26

NASHIROVA SHAXNOZA BURIYEVNA
Ikki tilli lug‘atlar: nazariy asoslar va tarixiy yondashuv 29

NORKUZIYEVA DILDORA
Til tizimiga kiritilgan zoonim va zoomorfizmlarning
qiyosiy tipologik tadqiqotlardagi tahlili 33

ERGASHEVA DILRABO ALLANAZAROVNA
Epitet – badiiy matnni obrazli ifodalovchi vosita 38

AVEZOVA GULNOZA KAMILOVNA
Komil Avazning nasriy asarlarida dialektizmlarning qo‘llanilishi
(«Sozanda» romani misolida) 41

AMONOVA ZAMIRA
Nemis va o‘zbek tillarida destruksiyani ifodalovchi
fe’llarning metaforik qo‘llanilishi 44

NE’MATOVA O‘G‘ILOY AKRAM QIZI
«Maxzan ul-asror” dostonining badiiy-tasviriy
vositalari va uslubiy xususiyatlari 53

TUROBOVA MATLUBA RAXMATULLAYEVNA
Sun’iy intellekt tizimlarida o‘zbek tili leksikografik bazasini
shakllantirishning innovatsion usullari 56

KO‘CHIYEVA SHABNAM ISOMIDDIN QIZI
Tilshunoslikda disleksiya va disgrafiyaning
neyrolingvistik va psixolingvistik tadqiqi masalalari 60

OZADOVA MA’MURA ERGASHEVNA
Xorazm xalq qo‘shiqlari tilidagi manglay leksemasining lingvokulturologik va
lingvopoetik xususiyatlariga doir 63

ALLAQULOVA SADOQAT AXMAT QIZI
O‘zbek tilining umumiy izohli lug‘atlarida etnoleksemalar berilishining qiyosiy tahlili 65

O‘RAZOV ALISHER DONIYOROVICH
O‘zbek tilida leksemaning semantik tabiati 68

JUMAYEVA KUMUSH TURSUNALIYEVNA
O‘zbek tili o‘zlashma qatlam somatik lesemalarida leksik tipologiya 72

МУНДАРИЖА

MURODQULOVA IRODA SHAROFIDDINOVNA
Semurg‘ obrazining lingvomadaniy talqini (o‘zbek xalq dostonlari misolida) 76

XASANOV DAVIRBEK ABDUMALIK O‘G‘LI
Frazeologik birliklarning lingvomadaniy tadqiqi 80

TO‘YCHIYEVA ZULAYXO HAMROQO‘LOVNA
Muhammad Yusuf ijodida jonli xalq tili elementlari 84

O‘RINBOYEVA E’ZOZXON KAMOLOVNA
RAXMONOVA DILZODAXON AKMALJON QIZI
Undoshlar bilan bog‘liq fonetik hodisalar: assimilatsiya 86

ЖАСУР ХУРСАНДОВ
Лингвокультурологические особенности анималистических
фразеологизмов в русском и узбекском языках 89

OZOTBOYEVA MAXFUZA RAVSHAN QIZI
Badiy matnda diskursiv shaxs talqini 94

ADABIYOTSHUNOSLIK

АСРОРОВ АКБАР, БОЛТАЕВ МАРДОН
Шоҳона сатрлар соҳиби – Султон Убайдий 98

SAMATOV SHOMAT, XO‘JANOVA OZODA
Buyuk shoir xotirasiga munosib haykal 103

ABDULLAYEV RAMAZON
Composing tatabbu‘ poetry in the time of Mu‘izzī and after him 106

JEPBAROWA SAÝAT KURBANMIRATOWNA,
EGENMURADOV ARZUV ANNAMIRATOVICH
Magtymguly Pyragynyň döredijilik äleminde möwlana Lutfynyň edebi poetik täsiri 111

ABDUXALIQOVA HILOLA G‘ULOM QIZI
XVIII–XIX asrlar o‘zbek dostonlarida tasavvufiy talqinlar 115

PAYG‘AMOVA SHIRIN JAKBARALI QIZI
Analitik folklorizmlarning poetik xususiyatlari 118

JAVLIYEV POYONBEK SHAVKAT O‘G‘LI
Usmon Azim nasrida lirik ohang 121

FERUZA RASULOVNA RASHIDOVA
The depiction of internal monologue as a form of artistic psychologism
in the novels of the Bronte sisters 124

TA’LIM

MASHARIPOVA NARGIZA OTAXONOVNA,
BAXRAMOVA MALIKA MUZAFFAROVNA
Sun’iy intellektli o‘yin yordamida inglizcha so‘z boyligini oshirish
(o‘zbek madaniyati asosida) 127

XABIBULLAYEVA SHOIRA SHUKURILLAYEVNA
Ona tili darslarida qo‘llaniladigan innovatsion pedagogik texnolgiyalarning o‘rni
(morfologiya bo‘yicha mashqlar tahlilida) 132

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 1-2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

MUHAMMAD YUSUF IJODIDA JONLI XALQ TILI ELEMENTLARI

To'ychiyeva Zulayxo Hamroqo'lovna,
Guliston davlat universiteti
O'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi

Jonli xalq tili kishilar o'rtasidagi jonli aloqa tili, oddiy, kundalik muomala-munosabat tilidir. Kishilar o'rtasidagi munosabat esa deyarli neytral bo'lmaydi. U yoki bu darajada ijobiy yoki salbiy bo'lish bu munosabatning shartidir. Tilshunos olim S.Karimov "Badiiy asarda til vositalarining qo'llanishini qat'iy bir qolipga solib bo'lmasligini, unda umumxalq tilidagi barcha elementlardan foydalanishda cheklov yo'qligini, xullas badiiy matnda umumtil fondining birliklari uchrashi mumkinligini ta'kidlab o'tgan"[1]. Darhaqiqat, umumxalq tilining ko'p unsurlaridan she'riy nutqda foydalanish mumkin. Masalan, dialektizm, varvarizm, vulgarizm, jargon so'zlar badiiy nutqning kerakli o'rinlarida qo'llanilganligini kuzatish mumkin. Xalq tilining bu muhim vositalaridan o'z o'rnida foydalanish ijodkorning mahoratini ko'rsatadi. Shu bois jonli xalq tilida ijobiy yoki salbiy bo'yoqli so'zlar, murojaat formalari, ko'chma ma'noli so'zlar, maqol va matallar ko'plab ishlatiladi.

Badiiy matnning lingvopoetik tahlilida badiiy adabiyot tilining, xususan, tahlil etilayotgan matn tilining umumxalq tili va adabiy tilga munosabatini nazarda tutish ham yana bir tamoyildir.

Shu o'rinda M.Yusufning "Laganbardorlar" she'ridagi quyidagi misralarga diqqatimizni qaratamiz:

Ular iblis bilan tili bir o'rtoq,
Ular Azroilga sodiq choparlar.
Avval Usmonlarni sotib, keyinroq
Faryod ko'targan ham – laganbardorlar[2].
Muhammad Yusuf ("Laganbardorlar").

She'riy matndagi "*laganbardor*", "*iblis*", "*Azroil*", "*kimsa*" kabi so'zlar haqorat ma'nosidagi (vulgar) lug'aviy birliklar sanaladi. Bunday leksemalar va ularning lug'aviy ma'nolari asosan, so'zlashuv uslubiga xosdir. Ularni qo'llash nutq madaniyatiga xos emas, ammo badiiy asarda ma'lum tarixiy shaxsning xarakterini ochishda, voqea-hodisani baholashda uslubiy vosita sifatida foydalaniladi.

Muhammad Yusuf uslubining o'ziga xos tomonlaridan biri shundaki, uning asarlarida xalq og'zaki ijodi namunalari ufurib turadi. Shuning uchun ham biz uning she'rlarini o'qir ekanmiz, bir tomondan, ko'z oldimizda shu she'r yozilgan davr namoyon bo'lsa, ikkinchi tomondan, xalq dostonlarining kuylari hamda xalq qahramonlarining so'zlari, qisqa, jonli xalq tili, xalq iboralari qulog'imizda jaranglab eshitilgandek bo'ladi.

Ta'magirni tortqilab,
Nafsi qo'ymas deydilar.
Nokas o'zi to'ysa ham,
Ko'zi to'ymas deydilar[3].
Muhammad Yusuf ("Shukr deysan sen qachon?")

Ma'lumki, jonli xalq tilida maqollar, matallar ko'p ishlatiladi. Maqollarda fikrni lo'nda va tiniq ifodalash imkoniyatining mavjudligi nutqning ta'sirchanligini ta'minlashda juda qo'l keladi. Badiiy asarning xalqchilligini, haqqoniyligini ta'minlashda ham maqollarga murojaat qilinadi. Qahramonlar nutqini boyitish, emotsional-ekspressivlikka erishish maqsadida ham maqollardan keng foydalaniladi[4]. Muhammad Yusuf ijodida maqollarga keng urg'u berilgan.

Xalq orasida bu yorug' dunyoning yolg'onchi ekanligi, o'tkinchi ekanligi, molu dunyoning ham do'st emasligi, bu borada shoh Iskandarning o'limi oldidan aytgan vasiyatlari tez-tez esga olinadi. Bu vasiyat tarbiya vositasi sifatida ko'rsatiladi. Shoir bu hikmatlardan she'riy parchalar tuzib, o'z asarlarining xalq ko'ngliga yaqinligini ta'minlaydi. Xalqning his-tuyg'ularini ifodalay oladigan bo'lishiga intiladi:

Kiprikdan ham qisqadir
Molu dunyo yo'llari.
Ibrat bo'lsin, Iskandar
Ochiq ketgan qo'llari!...

[1] Каримов С. Ўзбек тили функционал стилистикаси. – Самарқанд: СамДУ, 2010. – 192 б.
[2] Муҳаммад Юсуф. Сайланма: шеърлар, достонлар, хотиралар. – Тошкент: Шарқ, 2017. – Б.35.
[3] Муҳаммад Юсуф. Сайланма: шеърлар, достонлар, хотиралар. – Тошкент: Шарқ, 2017. – Б.129.
[4] Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2006. – Б.39.

Muhammad Yusuf (“Shukr deysan sen qachon?”)

Muhammad Yusuf she’riyati tadqiq qilinar ekan, uning ko‘p ma’noli so‘zlardan unumli foydalangani, ularni turli uslubiy vositalar sifatida qo‘llanganligining guvohi bo‘lamiz:

Shirin-shirin qarashlaring menga jannat,
Mening uchun seni yaratganga rahmat.
Yuragingni menga qaratganga rahmat,
Balki mening baxtim sensan, qaydan bilay,
Sen arzanda, men arzanda, nima qilay?[1]
Muhammad Yusuf (“Nima qilay?”)

Ushbu she’riy parchada “*shirin*”, “*jannat*”, “*yurak*” so‘zlari ko‘chma ma’noda qo‘llanilgan. Odatda, “shirin” leksemasi biror narsa-predmetga xos bo‘lib, mazza-ta’m bildirishga xizmat qiladi. Lekin yuqoridagi misrada butunlay boshqa ma’noda qo‘llangan bo‘lib, yor qarashlarining nihoyatda rohatijon, yoqimli ekanligiga ishora qiladi. Yorning bunday qarashi har qanday odamga yoqadi. Uni yorug‘ dunyodagi eng baxtli, eng to‘kin odamga aylantiradi. Shunda u o‘zini jannatga tushganday his qiladi. Shoir yuqoridagi ma’no tovlanishlariga, so‘zlarni ko‘chma ma’nolarda qo‘llash orqali erishgan.

Shoir o‘z poetik asarlari tilining ravon va mazmundor bo‘lishi uchun, qofiyalarning to‘q va misralarning teng bo‘lishi uchun harakat qilib, ko‘p hollarda turg‘un birikmalar – frazemalarni ham asosiy mazmunini buzmagan holda shaklan yo kengaytirib, yo qisqartirib ishlatgan.

Qon yig‘latdi qaysi bag‘ritosh,
Jayron, nega ko‘zing to‘la yosh?
Oyog‘ingga qo‘yib yotay bosh,
Jayron, nega ko‘zing to‘la yosh?[2]
Muhammad Yusuf (“Jayron”)

Ushbu she’riy parchada “*qon yig‘lamoq*”, “*oyog‘iga bosh qo‘ymoq*” iboralari qo‘llanilgan. Keyingi frazemaning shaklini qisman o‘zgartirib berish bilan o‘z asari tilining ravonligi va ifodaliligiga erishgan. Mazmunni obrazli qilib berishga muyassar bo‘lgan.

Shoir quyidagi misralarda esa xalq orasida mashhur bo‘lgan “*qo‘liga qaramoq*” iborasini bo‘lishsiz formada – “*qo‘liga qaramagan*” shaklida yangicha uslubda qo‘llab, asar tilining bo‘yoqdorligini ta’minlagan:

Ey, o‘tmishdan o‘tgan kunin so‘ramagan,
O‘zbek borsa kim qo‘liga qaramagan?
Botirlari qul bo‘lishga yaramagan,
Suluvlari bo‘yniga osilgan dunyo![3]
Muhammad Yusuf (“Dunyo”).

Misollardan ko‘rinadiki, Muhammad Yusuf o‘z asarlari tilini shirali va ravon qilish uchun xalq tilidan foydalanar ekan, tilga ehtiyotkorlik va hurmat bilan yondashadi. Ayrim hollarda esa, u vazn va o‘zchovni saqlash, to‘liq qofiyalar yaratish uchun xalq tilining turli formalaridan hamda eski o‘zbek adabiy tilining ayrim formalaridan ham unumli foydalanadi.

Adabiy matnlar milliy madaniyatni ifodalovchi asosiy manba sifatida qaraladi. Ayniqsa, maqol va iboralar xalqning asrlar davomida shakllangan dunyoqarashi, qadriyatlari, ijtimoiy tafakkuri va ruhiyati haqida insonda tasavvur va tushuncha uyg‘otadi.

Muhammad Yusufning umumxalq tili imkoniyatlaridan foydalanishdagi, xususan, xalq iboralaridan foydalanish sohasidagi novatorligi, birinchi navbatda, shoirning frazemalarni o‘z asarlari mazmuniga yarasha qayta ishlab, silliqlashtirishda va ixchamlashtirishida ko‘rinadi:

Aslida-ku, baringiz bir o‘zbeksiz,
Bir yurt o‘g‘li, bir uzukka ko‘zdeksiz.
Bo‘g‘zimda tosh qotib qolgan suvdeksiz,
Mardu maydon bo‘lib ketgan o‘g‘lonlar.
Muhammad Yusuf (“Armon”)[4].

Jonli xalq tilida “*tilab olgan o‘g‘il*” iborasi tez-tez ishlatiladi. Shoir shu iborani mohirlik bilan misralar ichiga joylab, yaxlit bir umumlashma ma’noni bera olgan.

Muhammad Yusuf – novator shoir, u o‘zbek tilidagi mavjud so‘zlardan foydalanib, yangi turg‘un birikmalar ham yaratadiki, bu birikmalar ijodkorning tilimizni yangi-yangi ifodalar bilan boyitishga intilganligidan dalolat beradi. Shoirning “Vatanim” she’rida:

Sen Xo‘jandsan,
Chingizlarga
Darvozasin ochmagan,
Temur Malik orqasidan
Sirdaryoga sakragan,
Muqannasan qorachig‘i
Olovlarga sachragan,
Shiroqlarni ko‘rgan cho‘pon
Cho‘lig‘imsan, Vatanim[5], – deb yozadi, ya’ni “*qorachig‘i olovlarga sachragan*” birikmasini yaratdi.

Badiiy adabiyotda “*quyosh*”, “*oftob*” so‘zlarini tur-

[1] Муҳаммад Юсуф. Сайланма: шеърлар, достонлар, хотиралар. – Тошкент: Шарқ, 2017. – Б.21.
[2] Муҳаммад Юсуф. Сайланма: шеърлар, достонлар, хотиралар. – Тошкент: Шарқ, 2017. – Б.12.
[3] Муҳаммад Юсуф. Сайланма: шеърлар, достонлар, хотиралар. – Тошкент: Шарқ, 2017. – Б.35.
[4] Muhammad Yusuf. Alyorim qolur. She’riy to‘plam. – Toshkent: Ziyo nashr, 2019. – B.104.
[5] Муҳаммад Юсуф. Сайланма: шеърлар, достонлар, хотиралар. – Тошкент: Шарқ, 2017. – Б.9.

li obrazli vositalar sifatida ishlatilishi ma’lum. Lekin quyidagi parchada shoir oftobni olamga qiyoslab, “*oftobsimon*” so‘zini qo‘llaydi:

Bir qo‘lda belanchak, bir qo‘lda Qur’on,
Bir yelkada ketmon, birida iymon,
Barchaga barobar bir oftobsimon,
Yashnasin olam, deb yashaydi o‘zbek[1].
Muhammad Yusuf (“O‘zbek”).

Xulosa qilib aytganda, Muhammad Yusuf o‘zining poetik asarlarida turli xil badiiy san’atlardan, til vositalaridan, xususan, jonli xalq tili imkoniyatlaridan keng foydalangan.

Rezyume. Ushbu maqolada Muhammad Yusuf ijodida xalq tiliga tayangan holda yaratilgan she’riy asarlari maqol va iboralarning poetik nutq tizimidagi o‘rni xalqona ruhni berish, ohangdorlikni oshirganligi, matnda jozibadorlikni ta’minlash, emotsional ta’sirchanlikni oshirish vazifasini bajarishi, xalq og‘zaki ijodini namoyon qilish badiiy qimmatiga egaligi ochib berilgan.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2026; 1-2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

UNDOSHLAR BILAN BOG‘LIQ FONETIK HODISALAR: ASSIMILATSIYA

O‘rinboyeva E’zozxon Kamolovna
FarDU katta o‘qituvchisi

Raxmonova Dilzodaxon Akmaljon qizi
FarDU 2-bosqich magistranti

Turkiy tillar, xususan, o‘zbek tili fonetikasida assimilatsiya hodisasi nutq oqimidagi tovushlar ketma-ketligida muayyan artikulyatsion belgilar asosida bir-biridan farqlanuvchi ikki undoshning o‘zaro moslashishi natijasida yuzaga keladi. Ushbu jarayonning asosiy harakatlantiruvchi omili so‘zlovchining nutq apparati faoliyatida talaffuz qulayligiga intilishi, ya’ni artikulyatsion energiyani tejash tamoyilidir.

Leksik birlik tarkibida o‘zaro zidlanuvchi tovushlar ketma-ket kelganda, ularning talaffuzi qo‘shimcha kuch talab qilishi mumkin. Assimilyatsiya natijasida ushbu zidlanish belgilari (masalan, hosil bo‘lish o‘rni yoki usuli bo‘yicha farqlar) bartaraf etilib, tovushlar bir-biriga o‘xshash yoki butunlay aynan bir xil holatga keltiriladi. Bu esa til tizimida leksemaning adabiy me’yoriy shakli bilan bir qatorda uning og‘zaki so‘zlashuv yoki uslubiy variantlari shakllanishiga zamin yaratadi.

Ushbu hodisaning amaliy ko‘rinishlarini bir necha guruhlarga ajratish mumkin:

Regressiv assimilatsiya: Bunda keyingi kelgan tovush o‘zidan oldingi tovushning artikulyatsiyasini o‘zgartiradi. Masalan, “shirmoy non” birikmasining “shirmonnon” tarzida talaffuz etilishi keyingi “n” tovushining oldingi “y” tovushiga ta’siri natijasidir.

To‘liq assimilatsiya: Ikki xil undoshning butunlay bir xil undoshga aylanishi kuzatiladi. Masalan, “tarnov” so‘zining “tannov” shakliga kelishi yoki “badtar” so‘zidagi jarangli “d” tovushining o‘zidan keyingi jarangsiz “t” ta’sirida “battar” bo‘lib o‘zgarishi ushbu jarayonning yaqqol misolidir[2].

Ilmiy jihatdan yondashilganda, assimilatsiya jarayoni tilning fonetik sathi doimiy dinamik harakatda ekanligini va nutqning tejamkorlik qonuniyatlariga bo‘ysunishini tasdiqlaydi. Bunday fonetik variantlar ko‘pincha badiiy nutqda personajlar xarakteristikasini

[1] Muhammad Yusuuf. Alyorim qolur… She’riy to‘plam. – Toshkent: Ziyo nashr, 2019. – B. 38.
[2] Rajabov N. O‘zbek shevashunosligi. Darslik. Toshkent: O‘qituvchi, 1996. – B 97.